

BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA INTERFAOL METODLARINI QO'LLASHNING AHAMIYATI

Sadullayeva Shahlo Alisher qizi
Xorazm viloyati Shovot tumanidagi
9-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf darslarida interfaol o'qitish metodlarini qo'llashning dolzarbligi va samaradorligi haqida fikr yuritiladi. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar yordamida o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, mustaqil fikrlash va guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritiladi. Metodlarning qo'llanilishi bilan bog'liq misollar va ularning darsdagi amaliy natijalari keltiriladi.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, boshlang'ich sinf, ta'lim samaradorligi, o'quvchilarning faolligi, guruhli ish, innovatsion yondashuv.

Zamonaviy ta'lim tizimi bolalarning faolligini oshirish, ularning mustaqil fikrlashini shakllantirish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Ayniqsa, boshlang'ich sinf darslarida bu yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, aynan shu bosqichda o'quvchining ta'limga nisbatan munosabati shakllanadi, ilk ko'nikmalari paydo bo'ladi. Shu jihatdan interfaol metodlarning qo'llanilishi dars jarayonini qiziqarli, samarali va mazmunli qiladi.

Innovatsiya bu yangilik kiritish, yaratish demakdir. Demak, an'anaviy ta'limdagi kabi bir xil shablonlar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiya deb ataladi. Ta'limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interaktiv metodlardan foydalanish ta'lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Turli metod hamda didaktik o'yinlar bolalarda kreativlikni rivojlantiradi. Bunda avvalo dars jarayonida to'g'ri va asosli mavzuga mos metodni tatbiq muhim hisoblanadi.

Ta'lim bu shunday jarayonki unda o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shaxsning tarbiyasi va uning taraqqiyoti amalga oshadi. O'qituvchi darsni qiziqarli hamda o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini so'ndirmasligi, qisqa qilib aytganda darslardan bezdirmasligi kerak bo'ladi. Shu maqsadda o'qituvchi o'quvchilarni darsga jalb qilish uchun eng avvalo ularning ko'ngliga yul topa olishi hamda turli hil zamonaviy interfaol metodlardan foydalanishi kerak. Bunda pedagog avvalambor o'zining qobiliyati, mahorati, malakasi va bilim doirasidan kelib chiqib o'z bilimlarini o'quvchilarga singdira olishi kerak bo'ladi.

Bugungi kunda turli hil didaktik o'yinlardan ham foydalanib kelmoqdalar. Interfaollik deganimizda aynan o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi o'zaro muloqotlar, o'qish-bilish savodxonliklari xam o'zaro suhbat ko'rinishida olib boriladi. Bunday interfaol metodlar va didaktik o'yinlar orqali olib boriladigan darslar juda qiziqarli bo'ladi, natijada bironta ham o'quvchi chetda qolmasdan ishtirok etadi va o'zlarining shaxsiy fikrlarini bemalol qo'rqmasdan bayon eta oladilar. O'quvchilar ko'rgan, eshitgan, idrok qilgan narsalarini zo'r qiziqish bilan bayon eta oladilar. Bolalarda darsga bo'lgan qiziqish va havas ham oshadi. Hamda o'zaro bir-biriga do'stona munosabatlar xosil bo'ladi. Bir - birlari bilan o'zaro fikr almashadilar.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, tabiatlariga qarab turli hil didaktik o'yinlar va metodlardan foydalaniladi. Endi ta'lim jarayonlarini didaktik o'yinlarda olib borish haqida gapiramiz: Interfaol metodlar o'quvchi faoliyatini jadallashtirib faollashtiradi. Bunda o'quvchilarning shaxsiyatidagi ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi.

Boshlang'ich sinflarni o'qitishda asosan – so'zlash, ko'rgazmali vositalardan foydalanib tushuntirish va ko'rish, tinglashga asoslangan metodlardan foydalaniladi. Bugungi kunda bir qancha rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy texnikalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi – interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interaktiv metodlarning turlari ko'p bo'lib, ta'lim tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud.

Interfaol metodlar — bu o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etish, ularni fikrlashga, muloqot qilishga va mustaqil qaror qabul qilishga undaydigan yondashuvlardir. Ushbu metodlar orqali o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ikki tomonlama aloqa yuzaga keladi. Masalan, “Aqliy hujum”, “Baliq suyaklari”, “INSERT”, “Klaster” kabi metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun juda qulay va tushunarli bo'lib, dars jarayonini jonlantiradi.

Bunday metodlardan foydalanish orqali o'qituvchi har bir o'quvchining faolligini oshiradi, ularning bilimlarni chuqurroq egallashiga zamin yaratadi. Ayniqsa, guruhli ishlarda bolalar bir-biri bilan fikr almashadi, o'z fikrlarini erkin bayon qiladi. Bu esa ularning ijtimoiy faolligi va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, interfaol metodlar orqali darslar ko'proq o'yinli, tasvirli va tajribaviy shaklda o'tadi. Bu esa bolalarning e'tiborini darsga qaratish, darsni eslab qolish va o'rgangan bilimlarini kundalik hayotda qo'llashiga yordam beradi. Natijada, o'quvchilarda nafaqat bilim, balki o'rganishga bo'lgan motivatsiya ham ortadi.

Masalan, matematika darslari interfaol metodlar orqali tashkillashtirilsa, dars ham qiziqarli, ham mazmunli o'tadi. Chunki, biz bilamizki, boshlang'ich sinf o'quvchilari juda o'yinqaroq bo'lishadi. Shuning uchun ham darslarni rang-barang metodlar bilan tashkil qilish maqsadga muvofiq. Misol uchun “Ko'paytirish jadvali”ni

tushunishda o'quvchi qiynaladi. Agar bu mavzu interfaol metodlar orqali tushuntirilsa, o'quvchining xotirasida qolishi osonroq bo'ladi. Hozirgi yuksalish va yangilanish davrida yashar ekanmiz biz o'qituvchilar interfaol metodlar asosida dars jarayonlarini tashkil qilamiz. Oddiygina o'qitish metodini olsak, bu tushuncha didaktika va metodikaning asosiy tushunchalaridan biridir. Didaktika va metodikaga oid hozirgi zamon ishlarining ko'pchiligida o'qitish metodlari o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatlari usullari, bo'lib, bu faoliyat yordamida yangi bilimlar, malaka va ko'nikmalarga erishiladi, o'quvchilarning dunyoqarashlari shakllanadi, ularning qobiliyatlari rivojlanadi. Darsda o'quvchilar faolligini oshiruvchi vositalardan biri-interfaol metodlardir.

Shuningdek, suhbat metodi boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda keng qo'llaniladigan va shu bosqich o'quvchilari tabiatiga mos metod sanaladi. Suhbat metodi savol-javob metodi deb ham yuritilgan. Suhbat metodi o'qituvchidan mavzuning xususiyatini o'zida aks ettirgan o'quv materialini topishni, grammatik mavzuning muhim belgilarini aniqlash, ularning o'xshash va farqli jihatlarini ajratish, o'xshash va farqli jihatlariga qarab guruhlash, umumlashtirishga, xulosa chiqarishga yo'naltirilgan savollar tuzishni, ularni o'quvchilarga izchil berib borishni talab etadi. Boshlang'ich sinflarda suhbat metodining muammoli o'qitish metodi sifatida qo'llanilishi ta'limda o'quvchilarni faollashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf darslarida interfaol metodlardan foydalanish — bu zamon talablari bilan hamohang bo'lgan, o'quvchi shaxsini rivojlantirishga qaratilgan samarali vositadir. Har bir o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni chuqur o'zlashtirib, o'z dars amaliyotida faol qo'llashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.S. Shoyimova, M.K. Xoshimova, Sh.R. Mirzayeva, M.M.Qo'ziboyeva "Ta'lim texnologiyalari" Toshkent-2020.
2. O.U. Avlayev, S.Jo'rayev, S.P.Mirzayeva "Ta'lim metodlari" o'quv uslubiy qo'llanma, „Navro'z" nashriyoti, Toshkent – 2017.
3. B.X. Xodjayev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti", Toshkent – 2017.